

**BOLALAR VA YOSHLAR HUQUQLARINI TA'MINLASHNING
KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI**

Mahmudov Ozodbek Umarjon o'g'li

Farg'ona yuridik texnikumi

"Davlat-huquqiy faoliyat" yo'nalishi

2-bosqich 41-24-guruh o'quvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bolalar va yoshlar huquqlarini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Bolaning alohida konstitutsiyaviy-huquqiy maqomga ega bo'lgan shaxs sifatidagi o'rni, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda davlat, jamiyat hamda ota-onalarning majburiyatlari yoritilgan. konstitutsiyaviy normalarni amalda ro'yobga chiqarish, bolalarga do'stona odil sudlov va murojaat qilish mexanizmlarini rivojlantirish, yoshlarning ijtimoiy faolligi va bandligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy-nazariy fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, yoshlar huquqlari, Konstitutsiya, bolalik, yoshlarga oid davlat siyosati, ta'lim olish huquqi, ijtimoiy himoya, inklyuziv ta'lim, bolaning eng ustun manfaatlarini, Bolalar ombudsmani, davlat kafolatlari.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения проанализированы конституционно-правовые основы обеспечения прав детей и молодёжи в Конституции Республики Узбекистан. Освещены положение ребёнка как личности, обладающей особым конституционно-правовым статусом, а также обязанности государства, общества и родителей по защите его прав, свобод и законных интересов. Выдвинуты научно-теоретические положения, направленные на практическую реализацию конституционных норм, развитие дружественного к детям

правосудия и механизмов обращения, поддержку социальной активности и занятости молодёжи.

Ключевые слова: права ребёнка, права молодёжи, Конституция, детство, государственная молодёжная политика, право на образование, социальная защита, инклюзивное образование, наилучшие интересы ребёнка, Детский омбудсман, государственные гарантии.

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the constitutional and legal foundations for ensuring the rights of children and youth under the Constitution of the Republic of Uzbekistan. It examines the status of the child as a person possessing a special constitutional and legal status, as well as the obligations of the state, society, and parents to protect the child's rights, freedoms, and legitimate interests. The article advances scholarly and theoretical views aimed at the practical implementation of constitutional norms, the development of child-friendly justice and complaint mechanisms, and the support of young people's social participation and employment.

Keywords: children's rights, youth rights, Constitution, childhood, state youth policy, right to education, social protection, inclusive education, best interests of the child, Children's Ombudsman, state guarantees.

Inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etuvchi demokratik va huquqiy davlatda bolalar hamda yoshlarning huquqlarini ta'minlash alohida konstitutsiyaviy ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, voyaga yetmagan shaxs o'zining jismoniy, aqliy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari tufayli huquqlarini mustaqil ravishda to'liq amalga oshirish va himoya qilish imkoniyatiga har doim ham ega bo'lavermaydi. Shu bois bola umumiy inson huquqlarining egasi bo'lish bilan birga, davlat va jamiyat tomonidan qo'shimcha himoya, g'amxo'rlik va kafolatlarga muhtoj bo'lgan alohida huquq subyekti hisoblanadi. Yoshlar esa davlatning nafaqat ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, balki jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim kuch sifatida

namoyon bo'ladi. Shuning uchun bolalar va yoshlar huquqlarining Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi ularning huquqiy maqomini belgilash, davlat organlari vakolatlarini yo'naltirish va tegishli qonunchilikni rivojlantirish uchun fundamental asos yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi 1994-yilda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilgan bo'lib, shu orqali har bir bolaning yashash, rivojlanish, ta'lim olish, sog'lig'ini saqlash, zo'ravonlik va kamsitishdan himoyalash huquqlarini ta'minlash majburiyatini olgan.[1] Konvensiyaning 3-moddasida davlat organlari, sudlar, ma'muriy muassasalar va qonun chiqaruvchi organlar tomonidan bolalarga nisbatan amalga oshiriladigan barcha harakatlarda bolaning eng ustun manfaatlari birlamchi hisobga olinishi kerakligi belgilangan. Ushbu prinsip bola huquqlarini ta'minlashga doir milliy qonunchilik va davlat siyosatini shakllantirishda bosh mezon bo'lib xizmat qiladi. O'zbek olimi V. Topildiyevning ta'kidlashicha, voyaga yetmaganlar siyosatining huquqiy asoslarini Konstitutsiya, milliy qonun hujjatlari va umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari tashkil etadi. Olim davlat siyosatining ustuvor vazifalari sifatida bola huquqlarini kafolatlash, bolalar manfaatlariga qaratilgan davlat va hududiy dasturlarni amalga oshirish, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ijtimoiy zaif bolalarni qo'llab-quvvatlashni ko'rsatadi.[2]

2023-yil 30-aprelda referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bolalar va yoshlarning huquqiy maqomi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Avvalgi tahrirdagi Konstitutsiyada oila, onalik va bolalikni himoya qilishga oid umumiy normalar mavjud bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirda "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan alohida bob kiritildi. Mazkur bobning mavjudligi bolalar va yoshlar masalasi davlatning oddiy ijtimoiy siyosati yo'nalishi emas, balki konstitutsiyaviy tuzumning muhim tarkibiy qismi ekanini ko'rsatadi. Konstitutsiyaning 76–80-moddalarida oila, ota-onalarning majburiyatlari, bolalarning tengligi, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari, shuningdek, yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarini ta'minlashga doir normalar mustahkamlangan.[3]

Konstitutsiyaning 77-moddasiga ko'ra, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Ushbu norma ota-onalik majburiyatining mazmunini faqat bolani moddiy ta'minlash bilan cheklamaydi. U bolaning jismoniy, intellektual, axloqiy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ham ota-onalarning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilaydi. Xorijiy tadqiqotchilar F. Bafojev va Sh. Toshev yangi konstitutsiyaviy qoidalar ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning mas'uliyatini kengaytirgani, bolalarning ta'lim olishi, sog'lom va har tomonlama rivojlanishi uchun qo'shimcha kafolatlar yaratganini ta'kidlaydilar.[4] Mazkur majburiyatlarning Konstitutsiya darajasida belgilanishi ota-onalik huquqlari bolaning manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emasligi haqidagi huquqiy xulosani keltirib chiqaradi.

Shu moddaning ikkinchi qismida davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishi, tarbiyalashi, ularning ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlashi belgilangan. Ushbu norma ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar taqdirini faqat mehribonlik muassasalari yoki xayriya tashkilotlariga yuklamaydi, balki ularni qo'llab-quvvatlashni davlat va jamiyatning bevosita konstitutsiyaviy vazifasi sifatida mustahkamlaydi. Bunday bolalarni himoya qilishda institutsional muassasalarga joylashtirishdan ko'ra, ularning oilaviy muhitda yashash huquqini ta'minlash, vasiylik, homiylik, farzandlikka olish va tutingan oila shakllarini rivojlantirish ustuvor bo'lishi lozim. Chunki oilaviy muhit bolaning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun eng tabiiy sharoit hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 78-moddasi bolalar huquqlarini ta'minlashning eng muhim konstitutsiyaviy kafolatlarini o'zida mujassam etadi. Unda farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanligi belgilangan. Ushbu norma nikohda yoki nikohsiz tug'ilgan, ota-onasi noma'lum, farzandlikka olingan yoxud boshqa ijtimoiy-huquqiy holatdagi bolalar o'rtasida har

qanday kamsitishni taqiqlaydi. Bolalarning tengligi faqat formal tenglikni emas, balki turli hayotiy vaziyatdagi bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratishni ham talab qiladi. Masalan, nogironligi bo'lgan bolalar, yetim bolalar, kam ta'minlangan oilalardagi bolalar yoki migratsiya oqibatida ota-ona parvarishidan vaqtincha mahrum bo'lgan bolalar uchun maxsus ijtimoiy va huquqiy choralar ko'rilishi tenglik prinsipiga zid emas, aksincha, real tenglikka erishish vositasidir.

Mazkur moddada bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekanligi belgilangan. "Eng yaxshi shart-sharoitlar" tushunchasi davlatning faqat salbiy, ya'ni bolaning huquqlariga aralashmaslik majburiyatini emas, balki faol ijobiy choralarni ko'rish majburiyatini ham anglatadi. Davlat bolalar uchun sifatli ta'lim, tibbiy xizmat, xavfsiz atrof-muhit, ijtimoiy himoya, madaniyat va sport bilan shug'ullanish imkoniyatlarini yaratishi, ularni zo'ravonlik, ekspluatatsiya, beparvolik va zararli axborotdan himoya qilishi lozim. UNICEF tadqiqotida ham samarali bola himoyasi tizimi zo'ravonlik, suiiste'mol, qarovsiz qoldirish va ekspluatatsiyaning oldini oladigan, bolalarga xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratadigan idoralararo tizim bo'lishi zarurligi qayd etilgan.[5]

Konstitutsiyaning 78-moddasida onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi ham mustahkamlangan. Ushbu qoida bolani himoya qilish ota yoki onaning alohida vazifasi emasligini, balki oilani yaxlit ijtimoiy institut sifatida qo'llab-quvvatlash zarurligini anglatadi. Onalikni muhofaza qilish homiladorlik va tug'ish davrida ayollarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, mehnat huquqlarini kafolatlash, bolani parvarishlash uchun shart-sharoit yaratishni talab qiladi. Otalikni muhofaza qilish esa otaning bola tarbiyasidagi teng mas'uliyati, bola bilan muloqot qilish va uning rivojlanishida ishtirok etish imkoniyatini ta'minlashni anglatadi. Shu tariqa, konstitutsiyaviy norma bola tarbiyasi faqat onaning vazifasi degan eskirgan qarashdan voz kechib, ota-onalarning teng mas'uliyati prinsipini ilgari suradi.

Bolalarning ta'lim olish huquqi ularning boshqa huquqlarini amalga oshirish, mustaqil hayotga tayyorlanish va jamiyatda munosib o'rin egallashining

asosiy shartidir. Konstitutsiyaning 50-moddasida har kimning ta'lim olish huquqi, davlatning uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishi, bepul umumiy o'rta va boshlang'ich professional ta'limni kafolatlashi, umumiy o'rta ta'limning majburiyligi belgilangan. Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi alohida qayd etilgan.[6] Inklyuziv ta'limga oid normaning Konstitutsiyaga kiritilishi nogironligi yoki rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlari bo'lgan bolalarni jamiyatdan ajratib o'qitishdan voz kechib, ularning boshqa bolalar bilan teng sharoitda ta'lim olishini ta'minlashga qaratilgan. Bunday yondashuv ta'lim muassasalarining infratuzilmasini moslashtirish, maxsus pedagog va psixologlarni tayyorlash, individual o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda kamsitish holatlariga barham berishni talab qiladi.

Ta'lim olish huquqi faqat maktabga qabul qilinish bilan to'liq amalga oshirilgan hisoblanmaydi. Ta'lim sifati, xavfsizligi, bolaning qobiliyatlari va ehtiyojlariga mosligi ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida bolaning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi usullarga, jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlikka, majburlash va tahqirlashga yo'l qo'yilmasligi lozim. Bolaning ta'lim muassasasida o'z fikrini bildirish, uning manfaatlariga daxldor masalalarda eshutilish huquqi ham ta'minlanishi kerak. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tashkilotlarida o'quvchilar kengashlari, bolalar murojaatlarini ko'rib chiqish tizimi va maktab psixologik xizmatining samarali faoliyati konstitutsiyaviy huquqning amaliy kafolati hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 48-moddasida har kimning sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi mustahkamlangan. Mazkur norma bolalar va yoshlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bolaning sog'lom rivojlanishi uning kelgusidagi ta'lim, mehnat va ijtimoiy hayot imkoniyatlarini belgilaydi. Bolalarning sog'liqni saqlash huquqi profilaktik emlash, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sifatli ovqatlanish, sanitariya sharoitlari, ruhiy salomatlik xizmatlari hamda nogironligi bo'lgan bolalarni rehabilitatsiya qilishni qamrab oladi. Yoshlar uchun esa reproduktiv salomatlik, zararli odatlarning oldini olish, sog'lom

turmush tarzi va sport bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir. Davlatning mazkur sohadagi majburiyati tibbiy muassasalar mavjudligini ta'minlash bilan cheklanmaydi, balki xizmatlarning sifatli, hududiy va iqtisodiy jihatdan barcha bolalar uchun ochiq bo'lishini ham talab etadi.

Konstitutsiyaning 79-moddasi bevosita yoshlar huquqlariga bag'ishlangan bo'lib, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlashi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirishi belgilangan. Ushbu norma yoshlarni faqat davlat tomonidan yordam oluvchi passiv guruh sifatida emas, balki davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etuvchi faol subyekt sifatida e'tirof etadi. Yoshlarning siyosiy huquqlarini ta'minlash ularning saylovlarda, jamoatchilik muhokamalarida, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishni talab qiladi. Iqtisodiy huquqlar esa tadbirkorlik bilan shug'ullanish, kasb tanlash, mehnat qilish va munosib daromad olish imkoniyatlari bilan bog'liq. Ijtimoiy huquqlar ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy va ijtimoiy ta'minotdan foydalanishni, madaniy huquqlar esa ilm-fan, san'at, sport va madaniy merosdan bahramand bo'lishni qamrab oladi.

Bolalar huquqlarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili — Bolalar ombudsmani instituti ham muhim o'rin tutadi. Mazkur institut bolalarning murojaatlarini ko'rib chiqish, davlat organlari va bolalar muassasalarida huquqlarga rioya etilishini o'rganish, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish va jamoatchilikning huquqiy xabardorligini oshirish orqali konstitutsiyaviy kafolatlarni amaliy mazmun bilan boyitadi. Bolalar ombudsmanining samarali faoliyati uning institutsional mustaqilligi, yetarli vakolat va resurslarga ega bo'lishi, bolalarning uning xizmatlariga bevosita va to'siqsiz murojaat qila olishi bilan bog'liq.

Konstitutsiyaviy normalarning mavjudligi bolalar va yoshlarning huquqlari avtomatik tarzda to'liq ta'minlanganini anglatmaydi. Huquqiy kafolatlarning samaradorligi ularni amalga oshiruvchi qonunlar, davlat dasturlari, moliyaviy resurslar, malakali mutaxassislar va jamoatchilik nazoratining mavjudligiga bog'liq.

Masalan, inklyuziv ta'lim Konstitutsiyada belgilangan bo'lsa-da, uning real amalga oshirilishi maktab binolarini moslashtirish, maxsus o'quv vositalari bilan ta'minlash va pedagoglarning malakasini oshirishni talab qiladi. Yoshlarning bandlik huquqi esa mehnat bozorining real ehtiyojlariga mos kasbiy ta'lim, yosh tadbirkorlarni moliyalashtirish, hududlarda ish o'rinlari yaratish va mehnat huquqlarini himoya qilish bilan ta'minlanadi.

Amaldagi tizimni yanada takomillashtirish uchun, birinchidan, barcha qonunlar va davlat dasturlarini ishlab chiqishda "bolaning eng ustun manfaatlari" prinsipining bajarilishini baholash tartibini joriy qilish maqsadga muvofiq. Bolalarga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishidan oldin ularning bola huquqlariga ta'siri ekspertizadan o'tkazilishi lozim. Ikkinchidan, bolalar va yoshlarning o'zlariga daxldor qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Maktab, mahalla, tuman va respublika darajasida bolalar va yoshlar maslahat kengashlarini tashkil etish, jamoatchilik muhokamalarida ularning fikrini olish konstitutsiyaviy ishtirok huquqining amaliy ifodasi bo'ladi. Uchinchidan, bola huquqlarining buzilishi to'g'risida maxfiy va sodda tarzda xabar berishga imkon beruvchi yagona elektron va telefon platformasini rivojlantirish lozim. To'rtinchidan, sud, prokuratura, ichki ishlar, ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya organlari xodimlari uchun bola huquqlari bo'yicha majburiy maxsus tayyorgarlik tizimini joriy qilish zarur. Beshinchidan, bolalar va yoshlar huquqlarining amalga oshirilishiga oid ma'lumotlarni yosh, jins, nogironlik holati va hududlar kesimida muntazam yig'ish hamda ochiq e'lon qilish lozim. Bunday ma'lumotlar muammolarni aniq aniqlash va davlat mablag'larini maqsadli yo'naltirishga yordam beradi.

So'zimiz yakunida aytishimiz mumkinki, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bolalar va yoshlarni mustaqil huquq subyektlari sifatida e'tirof etib, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni davlatning bevosita konstitutsiyaviy majburiyati darajasiga ko'tardi. Konstitutsiyaning 50, 77, 78 va 79-moddalari bolalarning ta'lim olishi, sog'lom va har tomonlama rivojlanishi, qonun oldida tengligi, alohida himoyadan foydalanishi

hamda yoshlarning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishi uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Mazkur normalarning asosiy ilmiy-huquqiy ahamiyati shundaki, ular bolalar va yoshlar siyosatini davlatning ixtiyoriy faoliyati emas, balki bajarilishi shart bo'lgan konstitutsiyaviy majburiyat sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy kafolatlarni real hayotga tatbiq etish bolalarga do'stona odil sudlovni rivojlantirish, inklyuziv va sifatli ta'limni ta'minlash, zo'ravonlikdan himoya qilishning idoralararo mexanizmlarini kuchaytirish, yoshlar bandligi va uy-joy masalalarini hal etish, Bolalar ombudsmani faoliyatini takomillashtirish hamda bolalar va yoshlarning qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirishni talab qiladi. Bolalar va yoshlarning huquqlarini to'laqonli ta'minlash inson huquqlariga asoslangan demokratik davlatning muhim belgisi, jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajak avlodning munosib hayot kechirishi uchun zarur shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] UNICEF. Situation Analysis of Children and Adolescents in Uzbekistan. – Tashkent, 2024. – P. 2.
- [2] Topildiev V. Some Reflections on Juvenile Policy of the Republic of Uzbekistan // Elementary Education Online. – 2021. – Vol. 20. – Issue 5. – P. 1658-1659.
- [3] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. <https://lex.uz/docs/6445145>.
- [4] Bafoev F., Toshev Sh. The Constitutional Framework for Family and Youth in Uzbekistan // Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences. – 2024. – Vol. 8. – Issue 1. – P. 132-133.
- [5] UNICEF. Situation Analysis of Children and Adolescents in Uzbekistan. – Tashkent, 2024. – P. 57-58.
- [6] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. <https://lex.uz/docs/6445145>.